



BUXORO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

XIZMATLAR SOHASINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI



2024- yil
yanvar-noyabr

Dastlabki ma'lumotlar

Xizmatlar sohasi zamonaviy iqtisodiyotda muhim o'rin tutib, aholi bandligini oshirish, turmush sifatini yaxshilash va resurslardan samarali foydalanishga hissa qo'shadi. Globallashuv va texnologiyaning jadal rivojlanishi bilan xizmatlar innovatsiyalar, samaradorlikni oshirish va iqtisodiy barqarorlik uchun asos bo'lib xizmat qilmoqda. Xizmatlar sohasi ijtimoiy infratuzilmani mustahkamlashga, davlat, biznes va aholi o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni yaxshilashga yordam beradi, shuningdek, iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari o'sishini rag'batlantiradi.

Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari (2024- yil yanvar-noyabr)

68,4



**Xizmatlar sohasidagi
korxona va
tashkilotlar
ulushi, % da**

14 873,6



**Aholi jon
boshiga
xizmatlar
hajmi, ming
so'mda**

69,3




**Xizmatlar sohasida
kichik tadbirkorlikning
ulushi, % da**



Xizmatlar sohasining mamlakat iqtisodiyotidagi ulushini oshirish, joylarda xizmatlar sohasidagi mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalanish, xizmat turlarini kengaytirish va sifatini oshirish, tadbirkorlik subyektlarini yanada qo'llab-quvvatlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021- yil 11-maydagi PQ-5113-son qarori bilan "O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirishning maqsadli parametrlari" tasdiqlandi va ularning monitoringini olib borish joriy etildi.

Soni, birlikda



Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar

(1- dekabr holatiga ko'ra)

2024- y.

68,4

Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soniga nisbatan ulushi, % da

63,8

2020- y.

Xizmatlar sohasida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar

(yanvar-noyabr)


56,2 2024- y.

Jami yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soniga nisbatan ulushi, % da

2020- y.

58,7

Soni, birlikda.



Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar

(1- dekabr holatiga ko'ra)

64,6



2024- y.

Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soniga nisbatan ulushi, % da

2020- y.



59,2

Soni, birlikda

2024

16 898

2023

17 926

2022

18 475

2021

16 696

2020

14 454

Yillar

Soni, birlikda

2024

2 586

2023

3 609

2022

2 749

2021

3 855

2020

3 174

Yillar

Xizmatlar sohasida yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari

(yanvar-noyabr)

2024- y.

55,0



Jami yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soniga nisbatan ulushi, % da


58,1



2020- y.


Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi ¹⁾

(yanvar-noyabr)



Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining o'sishiga xizmat turlarining qo'shgan hissasi

(2024- yil yanvar-noyabr)



¹⁾ Grafikda va keyingi o'rinlarda 2020-2023- y.y. yanvar-noyabr oylari uchun aniqlik kiritilgan ma'lumotlar keltirilgan, 2023- yil yanvar-noyabr oylari hajmi va 2024- yil yanvar-noyabr oylari uchun ma'lumotlar yashirin iqtisodiyotni hisobga olgan holda shakllantirilgan.


Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi iste'molchilarga (yuridik va jismoniy shaxslarga, shu jumladan norezidentlarga) ma'lum vaqt davomida ko'rsatiladigan xizmatlar qiymati (narxi)ni aks ettiradi.

Shahar va tumanlar kesimida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari (2024- yil yanvar-noyabr)

Shahar va tumanlar nomi	Hajmi, <i>mlrd so'mda</i>	Ulushi, <i>% da</i>	O'sish sur'ati, <i>% da</i>
Buxoro viloyati ¹⁾	30 583,2	100,0	111,5
tumanlar:			
Olot	681,9	2,2	110,8
Buxoro	1 065,3	3,5	110,1
Vobkent	1 231,9	4,0	113,0
G'ijduvon	2 488,1	8,1	110,3
Kogon	681,7	2,2	108,7
Qorako'l	890,8	2,9	109,1
Qorovulbozor	395,0	1,3	107,5
Peshku	1 103,3	3,6	109,2
Romitan	1 147,0	3,8	108,9
Jondor	1 096,0	3,6	110,4
Shofirkon	914,9	3,0	108,0
shaharlar:			
Buxoro sh.	8 281,0	27,1	111,7
Kogon sh.	789,2	2,6	109,6

¹⁾ shahar va tumanlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda


Aholi jon boshiga bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (yanvar-noyabr)



Shahar va tumanlar kesimida aholi jon boshiga xizmatlar hajmi (2024- yil yanvar-noyabr)




Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (yanvar-noyabr)



Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi **69,3** foizni, shu jumladan, **39,3** foizini kichik korxona va mikrofirmalarning ulushi tashkil etdi.

Shahar va tumanlar kesimida xizmatlar sohasidagi kichik tadbirkorlik (2024- yil yanvar-noyabr)



Tarmoqlar tasniflagichining belgilangan xalqaro standartlariga o'tish munosabati bilan O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirish dasturining maqsadli parametrlariga kiritilgan xizmatlarning asosiy turlarini guruhlash, G dan S gacha bo'lgan bo'limlar bo'yicha xizmatlar bilan bog'liq qism va iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha Mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar) statistik tasniflagichi (MST) ga ko'ra muvofiqlashtirildi.


Xizmatlar sohasining turlari bo'yicha asosiy ko'rsatkichlari

(2024- yil yanvar-noyabr)

Xizmat turlarining nomi	Hajmi, mlrd so'mda	Ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
Xizmatlar – jami	30 583,2	100,0	111,5
shu jumladan:			
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	900,3	2,9	116,1
Moliyaviy xizmatlar	4 094,8	13,4	107,8
Transport xizmatlari	4 907,6	16,0	110,0
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	4 483,0	14,7	110,7
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	8 720,6	28,5	113,0
Savdo xizmatlari	6 767,9	22,1	111,2
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	450,8	1,5	106,5
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	1 474,1	4,8	125,9
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	504,1	1,7	111,2
Ijara xizmatlari	460,5	1,5	104,0
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	577,5	1,9	116,4
Shaxsiy xizmatlar	570,2	1,9	108,3
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	187,6	0,6	104,3
Boshqa xizmatlar	967,2	3,2	107,6


Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar dinamikasi (yanvar-noyabr) ¹⁾

■ Hajmi, mlrd so'mda
● O'sishi (kamayishi), % da



2024-yilning yanvar-noyabr oylarida xizmatlarning umumiy hajmida (yashirin iqtisodiyotni hisobga olgan holda) yashash va ovqatlanish xizmatlarining ulushi **28,5** foizni tashkil etdi. Ularning tarkibida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar ustunlik qildi – **96,8** %.

Shahar va tumanlar kesimida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (2024- yil yanvar-noyabr)



¹⁾ shahar va tumanlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

■ Hajmi, mlrd so'mda ○ O'sishi, % da

Savdo xizmatlari dinamikasi (yanvar-noyabr) ¹⁾

2024- yilning yanvar-noyabr oylarida chakana savdoning ulushi (yashirin iqtisodiyotni qo'shgan holda) umumiy savdo xizmatlarining yarmidan ziyod qismini, ya'ni **65,1 %** ni tashkil etdi.




Shahar va tumanlar kesimida savdo xizmatlari (2024- yil yanvar-noyabr)



Buxoro shahri	1 333,2	+10,2
G'ijduvon	883,4	+9,4
Vobkent	621,5	+20,2
Peshku	464,8	+7,5
Romitan	393,7	+8,1
Buxoro	345,5	+10,4
Jondor	340,0	+12,8
Kogon	338,9	+9,7
Shofirkon	320,3	+5,9
Qorako'l	314,0	+6,3
Olot	251,4	+13,7
Kogon shahri	220,4	+8,0
Qorovulbozor	183,8	+13,2

¹⁾ shahar va tumanlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda


Transport xizmatlari dinamikasi (yanvar-noyabr) ¹⁾



Transport xizmatlarining umumiy hajmida avtomobil transporti xizmatlari ustunlik qiladi – **91,3** foiz.


Buxoro shahrida transport xizmatlari hajmi **1 086,2** mlrd so'mni tashkil etib, mazkur shaharda transport xizmatlari hajmining o'sish sur'ati **11,4** foizni tashkil etgan.

Shahar va tumanlar kesimida transport xizmatlari (2024- yil yanvar-noyabr)




¹⁾ shahar va tumanlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Moliyaviy xizmatlar dinamikasi (yanvar-noyabr)




Shahar va tumanlar kesimida moliyaviy xizmatlar

(2024- yil yanvar-noyabr, mlrd so'mda)



Moliyaviy xizmatlar tarkibi (2024- yil yanvar-noyabr, % da)



Moliyaviy xizmatlar tarkibidagi sug'urta va nafaqa xizmatlaridan tashqari xizmatlarning ulushi, **2024-yil yanvar-noyabrda 92,7** foizni tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlarning umumiy hajmida Buxoro shahrining ulushi **64,8** foizni yoki **2 655,2** mlrd so'mni tashkil etdi. **2023- yil yanvar-noyabr** oylariga nisbatan ushbu shaharda yuqori o'sish sur'ati **107,9** foiz darajasida qayd etildi.

Ta'lim sohasidagi xizmatlar dinamikasi

(yanvar-noyabr)

■ Hajmi, mlrd so'mda
● O'sishi, % da



Ta'lim sohasidagi xizmatlarning umumiy hajmida oliy ta'lim sohasidagi xizmatlar ustunlik qilib, **2024- yil yanvar-noyabr** oylaridagi ulushi **76,9** foizni tashkil etdi.



Shahar va tumanlar kesimida ta'lim sohasidagi xizmatlar (2024- yil yanvar-noyabr, mlrd so'mda)

Buxoro shahri	1 202,9
Qorako'l	25,8
Kogon	21,7
G'ijduvon	20,6
Jondor	14,7
Buxoro	13,5
Romitan	12,9
Shofirkon	12,5
Peshku	10,1
Kogon shahri	9,7
Vobkent	8,7
Olot	6,4
Qorovulbozor	4,1



Shahar va tumanlar orasida ta'lim sohasidagi eng katta hajm Buxoro shahriga to'g'ri keladi. **2024-yilning yanvar-noyabr** oylari davomida mazkur shaharda ushbu turdagi xizmatlar hajmi **1 202,9** mlrd so'mni yoki ta'lim sohasidagi xizmatlar umumiy hajmining **30,0** foizini tashkil etdi.



Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari dinamikasi (yanvar-noyabr) ¹⁾

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining umumiy hajmida eng katta hajmni telekommunikatsiya xizmatlari egallaydi. **2024-yilning yanvar-noyabr** oylaridagi ulushi **82,4 %** ni tashkil etdi.



Shahar va tumanlar kesimida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2024- yil yanvar-noyabr)

Buxoro shahri	230,5	+24,7
G'ijduvon	99,3	+10,7
Jondor	62,6	+14,1
Buxoro	60,5	+10,1
Shofirkon	58,8	+12,1
Qorako'l	56,6	+13,4
Romitan	51,6	+18,8
Vobkent	51,3	+11,4
Peshku	41,0	+13,9
Kogon	37,0	+14,1
Olot	34,8	+10,9
Kogon shahri	28,4	+11,2
Qorovulbozor	15,1	+9,9


¹⁾ shahar va tumanlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Hajmi, mlrd so'mda

O'sishi, % da


Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari dinamikasi

(yanvar-noyabr) ¹⁾



Boshqa shaxsiy foydalanish buyumlari va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar jami kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlarining **46,5** foizini tashkil etadi.

Shahar va tumanlar kesimida kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari (2024- yil yanvar-noyabr)




¹⁾ shahar va tumanlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

■ Hajmi, mlrd so'mda ♦ O'sishi, % da

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar umumiy hajmida shifoxona muassasalari xizmatlarining hissasi salmoqli bo'lib, **2024- yil yanvar-noyabr** oylaridagi ulushi **35,8** foizni tashkil etdi. Boshqa sog'liqni saqlash xizmatlari **33,3** foizni, shifokorlar amaliyoti va stomatologiya sohasidagi xizmatlar **12,6** foizni tashkil etdi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar dinamikasi (yanvar-noyabr)



Shahar va tumanlar kesimida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (2024- yil yanvar-noyabr)

Buxoro shahri	251,8	+10,5
G'ijduvon	36,6	+13,8
Buxoro	22,5	+10,9
Kogon shahri	16,8	+10,7
Qorako'l	14,6	+9,5
Jondor	12,7	+8,8
Peshku	11,7	+12,7
Shofirkon	9,6	+8,6
Vobkent	9,6	+12,0
Romitan	9,3	+10,9
Olot	8,8	+11,1
Kogon	6,9	+13,8
Qorovulbozor	2,1	+13,1

Hajmi, mlrd so'mda

O'sishi, % da

Ijara xizmatlari dinamikasi (yanvar-noyabr) ¹⁾



Shahar va tumanlar kesimida ijara xizmatlari (2024- yil yanvar-noyabr, mlrd so'mda)



2024- yilning yanvar-noyabr oylarida ijara xizmatlari hajmi **460,5** mlrd so'mga yetdi.

Ushbu xizmatlarning umumiy hajmida yengil avtomobillar va yengil avtotransport vositalarining ijarasi bo'yicha xizmatlarning salmoqli qismi – **56,1** foizni tashkil etadi.

¹⁾ shahar va tumanlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar dinamikasi


(yanvar-noyabr) ¹⁾



Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarning umumiy hajmida shaxsiy yoki ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berish va boshqarish bo'yicha xizmatlar **80,8** foizni tashkil etdi.

Shahar va tumanlar kesimida ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar

(2024- yil yanvar-noyabr)



¹⁾ shahar va tumanlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda


 Hajmi, mlrd so'mda

 O'sishi, % da

Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar dinamikasi (yanvar-noyabr)



Shahar va tumanlar kesimida me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (2024- yil yanvar-noyabr, mlrd so'mda)



2024- yilning yanvar-noyabr oylarida me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmi **187,6** mlrd so'mga yetdi.

Ushbu xizmatlarning umumiy hajmida Buxoro shahrining ulushi **79,6** foizni tashkil etdi.

Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

Savdo xizmatlari, shu jumladan, elektron savdo xizmatlari hajmi amaldagi narxlardagi yalpi daromad qiymati, ya'ni sotilgan tovarlarning sotib olish va sotish narxlari orasidagi farqining umumiy qiymati sifatida hisobga olinadi. Agar tovarlar boshqa shaxs manfaatlari uchun oldi-sotdi shartnomalari, komissiyalar yoki agentlik shartnomalari asosida sotilgan taqdirda, xizmatlar qiymati mukofot miqdori sifatida aks ettiriladi.

Transport xizmatlarining hajmi amaldagi narxlarda transport turlari bo'yicha transport jarayoniga (yuklarni tushirish va yuklash ishlari, transport-ekspeditorlik xizmatlari, transport xizmati va boshqalar) bevosita bog'liq bo'lgan tashish va boshqa faoliyatdan olingan daromad summasi sifatida aniqlanadi.

Moliyaviy xizmatlar hajmi moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlar uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

“Ta’lim” seksiyasi kunduzgi yoki sirtqi shaklda, shuningdek, Internet tarmog'i va pochta yozishmalari orqali xususiy yoki davlat tomonidan beriladigan turli darajadagi ta'limni va turli kasblarga o'rgatishni o'z ichiga oladi.

Bunga turli darajadagi muntazam maktab tizimi doirasida turli muassasalar tomonidan beriladigan ta'lim, shuningdek, kattalar uchun ta'lim (tayyorlash va qayta tayyorlash kurslari), ta'lim sohasida yordamchi faoliyat va shunga o'xshash boshqalar kiradi. **Ta'lim sohasidagi faoliyatni** amalga oshirishda masofaviy o'qitish shaklini ham hisobga olgan holda ko'rsatilgan bozor xizmatlari (shartnoma) qiymati aks ettiriladi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi amaldagi narxlarda mazkur sohada xizmat ko'rsatuvchi korxonalarning daromadlari (sotishdan tushgan tushum miqdori) yig'indisi sifatida aniqlanadi.

Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar hajmi bu – kompyuterlar va periferik uskunalarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish kommunikatsiya uskunalari (fakslar, radiostansiyalar)ni ta'mirlash, maishiy elektronika (radiopriyomniklar va televizorlar), uy va bog' uchun uskunalar (gazon o'ruvchi va havo (dam) beruvchi mashina), poyabzal va charm buyumlar, mebel va uy jihozlari, kiyim va aksessuarlar, sport anjomlari, musiqa asboblari va boshqa shaxsiy buyumlar va maishiy tovarlarni ta'mirlashdan tushgan tushum miqdoridir.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu – sog'liqni saqlash muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam va sanitariya xizmatlari uchun ko'rsatiladigan bozor xizmatlarining qiymatidir.

Ijara xizmatlari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi mashinalar va asbob-uskunalarni operatorlarsiz ijaraga berish, maishiy jihozlar va shaxsiy ehtiyoj buyumlarini ijaraga berishdan olingan daromad miqdori sifatida aniqlanadi.

Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarni ko'rsatishda ko'chmas mulk bilan bog'liq operatsiyalar bo'yicha xizmatlar qiymati, korxonaning shaxsiy, xo'jalik yuritish yoki tezkor boshqaruvidagi, shuningdek, ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berishdan olingan daromatlari aks ettiriladi.

Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmi shartnomada nazarda tutilgan talablarga muvofiq loyihalar, izlanishlar, konstruktorlik va texnologik ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar, shuningdek, qurilish ishlari ustidan nazorat va boshqa injenerlik xizmatlarining qiymatini o'z ichiga oladi.